

## HAYKALTAROSHLIK SAN'ATINING RIVOJLANISH TARIXI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7824398>

**Yorqulov To'lagan Hamidovich**

*SamDAQU "Tasviriy san'at" kafedrası katta o'qituvchisi*

### **Annotatsiya.**

*Ushbu maqolamda haykaltaroshlikning paydo bo'lishi ibtidoiy davrga to'g'ri kelishi, odamlarning mehnat faoliyati, sehri e'tiqodlari bilan bevosita bog'liqligi haqida qolaversa, Qadimiy davrlardan saqlanib qolgan ayollarning, hayvonchalarning haykalchalari haqida va O'zbekiston, Rossiya, Misr, Qadimgi Yunon, Arxaik davrlaridan saqlanib qolgan haykalchalarning ma'nosi, shakllar haqida barcha ma'lumotlarga ega bo'lasiz.*

### **Kalit so'zlar.**

*Haykaltaroshlik, ibtidoiy davr, O'zbekiston, Rossiya, Misr, Qadimgi Yunon, Arxaik davr, kech neolit va eneolit, Tosh ayollar, bronza, oltin, kumush, skif oltin relyeflari, Nok madaniyati, Despotizm g'oyasi, Shumer, Akkad, Bobil, Ossuriya yodgorligi, Misr mahobatli haykallar, Varaxsha, Tuproqqal'a, Afrosiyob, Holchayon, Dalvarzintepa,*

Haykaltaroshlikning paydo bo'lishi ibtidoiy davrga to'g'ri keladi va bu odamlarning mehnat faoliyati, sehri e'tiqodlari bilan bevosita bog'liq. Ko'p mamlakatlarda topilgan paleolit davridan qolgan (Fransiyadagi Montespan, Avstriyadagi Villendorf, Rossiyadagi Malta, Buret va boshqalar) hayvonlar va ayollarning o'sha davrga mansub bo'lgan turli haykaltaroshlik tasvirlariga oid ilk asarlar namunasi topilgan.

Paleolit davridagi Venera, Neolit davridagi haykaltaroshlik yodgorliklari doirasi yanada kengroq bo'lgan. Ular odatda turli qattiq tosh, suyak va yog'ochdan dumaloq haykallar yasashgan, tosh plitalar va g'or devorlariga o'yib relyeflar bajarishgan. Haykaltaroshlik u davrda idishlar, mehnat qurollari va ov qurollarini bezash vositasi bo'lib xizmat qilgan va tumor sifatida ishlatilgan.

Rossiya hududida kech neolit va eneolit haykaltaroshligiga misol qilib, keramik plastika odamlarning katta tosh tasvirlari ("tosh ayollar"), bronza, oltin, kumush va boshqa materiallardan yasalgan haykal bezaklarini misol sifatida aytib o'tishimiz mumkin.

Haykaltaroshlik mehnat taqsimotining o'sishi va texnologik taraqqiyot bilan bog'liq holda, ibtidoiy jamoa tuzumining parchalanishi davrida yanada rivojlandi. Bu bosqichning eng yorqin yodgorliklari - skif oltin relyeflari, Nok madaniyatining

terrakota boshlari, odamlarning tipologik xilma -xil yog'och o'yma haykallaridir. Quldor egalik qiladigan jamiyat san'atida haykaltaroshlik o'ziga xos vazifalar va o'z ish uslubiga ega bo'lgan alohida faoliyat turi sifatida ajralib turadi.

Despotizm g'oyasini ifoda etishga, qat'iy ijtimoiy g'oyani davom ettirishga, xudolar va shohlarning kuchini ulug'lashga xizmat qilgan qadimgi Sharq davlatlari haykaltaroshligi ob'ektiv universal narsaga ega bo'lgan muhim va mukammallikni o'ziga tortdi.

Buni Qadimgi Misr haykaltaroshligida ulug'vorlikka to'la ega bo'lgan ulkan harakatsiz sfinkslar, simmetriya va muvozanat printsipligiga ko'ra kanonik pozalar va frontal konstruksiyali firavnlarni va ularning xotinlari haykallari, zodagonlarning portretlari, qabrlar va ibodatxonalar devorlarida ulkan rel'yeflar va dafn marosimi bilan bog'liq kichik haykallarda ko'rish mumkin.

Boshqa qadimgi Sharq despotlari haykali ham xuddi shunday rivojlangan - Akkad, Bobil, Ossuriya, Qadimgi Yunoniston va qisman Qadimgi Rim haykaltaroshligi erkin fuqarolarning ko'pchiligiga qaratilgan ko'p jihatdan qadimgi mifologiya bilan aloqani saqlab qolgan va 7 boshqacha insonparvarlik xususiyatiga egadir. Xudolar va qahramonlar, sportchilar va jangchi tasvirlarida Qadimgi Yunoniston haykaltaroshlari barkamol shaxs idealini o'zida mujassam etgan, ularning axloqiy va estetik g'oyalarini tasdiqlagan.

Arxaik davrning sodda, yaxlit plastikasidan umumlashtirilgan lekin biroz cheklangan haykaltaroshligi anatomiya haqidagi aniq bilimlarga asoslangan moslashuvchan, bo'laklarga bo'lingan klassik haykaltaroshlik bilan almashtiriladi, u Miron, Fidiya, Poliklet, Skopas kabi buyuk ustalarning ijodini ilgari suradi.

Qadimgi yunon haykallari va rel'yeflarining mavjudligi qabr toshlari ko'rinishida yasalgan bronza va terrakota haykalchalarining haqiqiy xarakteri yalang'och yoki pardozlangan inson tanasini tasvirlashning yuqori mahoratida yaqqol namoyon bo'ladi. Poliklet "Canon" nazariy asarida matematik hisob-kitoblar asosida uning mutanosiblik qonunlarini shakllantirishga harakat qildi. Qadimgi yunon haykaltaroshligida voqelikka sodiqlik, shakllarning hayotiy ekspressivligi tasvirni ideal umumlashmasi bilan birlashtirilgan.

Ellinistik davr san'atida klassik haykaltaroshlikning me'moriy uslublar jihatidan aniqligi, dramatikligi yorug'lik va soyaning kuchli kontrastlari bilan almashishi sabab tasvirlar sezilarli darajada ko'proq individuallikka ega bo'lgan. Qadimgi Rim haykaltaroshligining realizmi portret san'atida, ayniqsa, personajlarning individual va ijtimoiy tasvirining keskinligi bilan to'la ochib berilgan. Zarvorli ustunlar va devorlarni bezab turgan tarixiy hikoya syujetlari

bilan rel'yef ishlab chiqildi hamda shu bilan birga otliqlar tasviridagi yodgorlik turi shakllandi. Mikelandjelo tomonidan Rimdagi Kapitoliy maydoniga o'rnatilgan Mark Avreliy haykali bunga misol bo'ladi.

Xristian dini dunyo qarashning asosiy shakli sifatida O'rta asrlarda Yevropa haykaltaroshligining xarakterini aniqlab berdi. Kerakli bog'lanish sifatida haykaltaroshlik tektonik tuzilishining tantanali bo'lishi sharti bilan Romanesk soborlarining me'moriy ansmbili bezaklariga kiritilgan.

Gotika san'atida, havoriylar, payg'ambarlar, azizlar, xayoliy maxluqlar va ba'zan haqiqiy odamlarning relyeflari va haykallari tom ma'noda soborlar portallarini, yuqori qavat galereyalarini, minoralar va xonadagi tokchalarni to'ldirib bezatishda haykaltaroshlik muhim rol o'ynaydi. Bu esa me'morchilikka odamlar qiyofasi tasvirini kiritish orqali uning ma'naviy yuksakligini oshiradi.

Bu borada biz skiflar madaniyati, Afrika qit'asining Nok manzilidan topilgan turli sopol haykallar va boshqalarni aytib o'tishimiz mumkin. Ibtidoiy davr haykaltaroshligi o'zining rang-barangligi bilan xarakterlanadi va u dumaloq hamda bo'rtma tasvir - relyef tarzida namoyon boladi. Haykallarni loydan yasash va uni olovda kuydirib terrakotaga aylantirish, yog'och, suyakdan yo'nish, tosh, marmarga ishlov berish hamda metallbronza, oltindan haykallar quyish uslublarida bajarishgan.

Yer osti qazilmalari natijasida odam, hayvon va turli qushlar haykallari, alohida bosh haykali, janrli kompozitsiyalar arxeologlar tomonidan topilgan. Ayniqsa, quyma haykallar yaratish borasidagi ishlar jez (bronza) davrida yuksaklikka erishdi. Chunki quyma haykal yasash haykaltaroshdan o'z g'oyasini ifodalashda qator jarayonlarni amalga oshirish - dastlab g'oyani materiallashtirish, ya'ni shaklni yasab olish, so'ng undan qolip olish va shundan keyingina qolipga kerakli metallni (bronza, oltin, mis) eritib quyish va nihoyat, uni qolipdan chiqarib ishlov berish jarayonlarida aqliy ham jismoniy kuch talab etar edi. Shunday jarayonlarda amalga oshirilgan ko'pgina buyum va haykallar bizgacha yetib kelgan. Farg'ona quyma topilmalari ichida amaliy bezak buyumlari ko'plab uchraydi.

Ibtidoiy jamoa davrining dastlabki rasmlari qoya tosh yuzalari, g'or devor va shiplariga, suyak yuzalariga ishlangan. Ularda turli hayvonlar tasviri ifodalangan. O'zbekiston hududida shunday tasvirlar Toshkent, Surxondaryo, Farg'ona, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida saqlanib qolgan. Tasvirlar chaqa qilish, ya'ni qattiq tosh bilan urib yuzada chuqurchalar qilish, Ibtidoiy jamoa davrida O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan odamlar yashaydigan manzillardan topilgan buyum

yuzalarida o'yish, qattiq qurol bilan yuzani tirnash yoki chizish, tabiiy bo'yoqlar (rangli tuproqlar)ni mol yog'i bilan aralashtirish asosida yuzalarga tasvirlar ishlangan.

Farg'ona vodiysining Haq qishlog'idan 1899-yili bir qancha bronza va kumushdan ishlangan buyumlar - mehnat va ov qurollari topilgan edi. Shular ichida sigir sog'ayotgan ayol haykali ishlangan to'g'nag'ich bezagi o'z xarakteriga ega bo'lgan topilmadir. Unda o'z buzoqchasiga engashib qarab turgan sigir va uni sog'ayotgan ayol tasvirlangan. Haykaltarosh oddiy mana shu kompozitsiyada hayotiy voqeani aks ettiradi. Shu davrga oid ov va mehnat qurollari ham o'zining bejirim shakli, o'lcham nisbatlari bilan yaxshi yasalgan ikki boshli ilon tasviri bo'lgan tumor topilgan u kishida ajoyib taassurot qoldiradi. Ibtidoiy jamoa davrining so'nggi bosqichlarida toshga ishlov berish, tosh, marmardan haykal yasash san'atini ibtidoiy haykaltarosh mukammal o'zlashtirib oldi. Farg'ona vodiysidan topilgan ikki boshli ilon tasviri mil. av. 2 minginchi yillarda ishlangan. Unda tosh sathiga yaxshi ishlov berilgan, silliq ilon tanasida oq chuqurchalar bo'lib, ularga oqish gips to'ldirilgan, ko'z va tishlari inkrustatsiya uslubida ishlangan va qimmatbaho toshlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin.

Marmardan ishlangan —Qayiqdagi buqa,—Toshbaqa haykali,

Toshdan yasalgan—Erkak boshi haykali davr haykaltaroshlik namunasi sifatida e'tiborga loyiq.

Mirshodi manzilidan topilgan qora toshdan ishlangan —Erkak boshi haykalida qattiq materialga ishlov berib katta shakllarda odam boshi xususiyatlarini ko'rsatishga muyassar bo'lgan.

Bu davr sopol haykaltaroshligi - terrakotada betakror haykallar ishlandi. Bu haykallar mavzusi rang-barang. Odam, hayvon, qushlar, turli hayotiy voqealar shu haykallarda o'z aksini topgan. Haykaltaroshlikdan buyumlarni bezash ishlarida ham keng foydalanilgan. Turli ko'za, xum kabi buyumlarning band va ayrim bo'limlari hayvonlar, masalan qo'y, sher va boshqa hayvonlar shakliga o'xshatib yasalgan.

Ibtidoiy jamoa davri amaliy bezak san'atini ham o'ziga xos rang-barang va boydir. Bu san'at kishilar kundalik ehtiyojining ajralmas qismi bo'lib, u odamzodning birinchi bor qo'lga yog'och olib undan foydalanganida, tosh bilan toshni maydalaganida shakllana boshlagan edi.

Bu jihatdan haykaltaroshlikda Qadimiy Sharqning alohida o'rni bor: ilk bor mahobatli haykallar, dastgoh portretlari, jo'shqin, harakatga to'la bo'rtma tasvirlar

yaratildi. Shumer va Akkad, Babil va Ossuriya yodgorliklari, Misrdagi mahobatli haykallar, nafis bortma tasvirlar shu davrning nodir yodgorliklaridir.

O'rta Sharq jumladan, O'zbekiston hududida yaratilgan Xorazm, Sug'd, Baqtriya yodgorliklari Varaxsha, Tuproqqal'a, Afrosiyob, Holchayon, Dalvarzintepa, Quvaning mahobatli haykal va bo'rtma mayda haykalchalar, amaliy san'at buyumlarini bezashda ishlangan turli badiiy shakllar davrning boy madaniyatidan dalolat beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Baymetov B. B. Haykaltaroshlik. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma.
2. Toshkent, 2005yil.
3. Baymetov B.B. «Haykaltaroshlik va plastik anatomiya» o'quv qo'llanma.
4. Toshkent, Moliya-iqtisod-2011 yil.
3. F. Shabaratov P.P. Haykaltaroshlik. O'quv uslubiy majmua. Nizomiy nomli TDPU. 2015yil.
4. R. Hasanov, X. Egamov. Maktabda tasviriy san'at darslari. T., 1995.yil.
6. N.Oydinov. Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari. T., 1997 yil.
8. T. Esanov. Haykaltaroshlik. O'quv qo'llanma. Samarqand 2011 yil.
9. X. Sul'tonov.(rais) va boshqalar —Mustaqillik davri o'zbek me'morchilik va monumental haykaltaroshlik san'ati. T. San'at jurnali nashriyoti. 2011 yil.
10. V.A. Jukova, L.M Shekotovoy —Qadimgi Rimensklopediya M —Astrel nashriyoti ensklopediya 2008 y.
11. Yu.D. Kolpinskiy. Egey dunyosi va Qadimgi Yunoniston san'ati. M., "San'at", 1970 yil. 24- 58. bb. 14. M.V. Alpatov. Qadimgi Yunoniston san'atining badiiy muammolari. M., 1987 yil.
12. Ш.Э. Ўринбоев , Ш.В. Барнаева . Покистон. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Creative Triad in Artistic Life of Samarkand in 30 Years of XX Century 2021 йил 9-10 бетлар